



Received: October 2, 2024
Accepted: December 23, 2024
Available online: December 25, 2024

Xushnuda Samigova

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ERKALASHNING SOTSIOLINGVISTIK VA GENDER XUSUSIYATLARI

ANNOTATSIYA

Maqolada ingliz va o'zbek tillarida erkalash funksional-semantik maydoni (EFSM)ning sotsiolingvistik va gender xususiyatlari tadqiq etilgan. Ingliz va o'zbek tillarida erkalash ma'nosini ifoda etuvchi so'zlar, so'z birikmalari va frazeologik birliklar ayni bir xalq nutqida umumiy ravishda hamda kichik guruhlar doirasida qo'llaniladi. Xususan, tadqiq etilayotgan tillarda EFSMning qarindosh-urug'lar, do'st va birodarlar, sevishganlar nutqida, adabiy va so'zlashuv til doirasida ifoda etilishi, uning shevadagi ko'rinishi hamda kishi yoshiga nisbatan ifoda etilishida farqli va o'xshash jihatlari tavsiflanadi. Natijada ingliz va o'zbek tillarida erkalashda eng faol qo'llaniluvchi leksik birliklarning foiz ko'rsatkichlari aniqlandi. Bular ingliz tilida dear, darling, sweet, honey, baby, love so'zlari, o'zbek tilida esa asalim, jonim, shakarim, shirinim, novvotim so'zlaridir.

Shuningdek, EFSMning gender xususiyatlari komponent tahlil asosida, kontekstlar yordamida tadqiq etildi. Bunda ingliz tilida wife, husband, girl, woman, boy, man, male, guy, o'zbek tilida esa ma'shuqa, mahbuba, juvonlar, xotin-qizlar, ayol, ona, o'g'il bola, er, yigit, o'g'il kabi markerlar asosida erkalash ma'nosini ifoda etuvchi so'zlar, so'z birikmalari va frazeologik birliklar gender xususiyatlarga ega bo'lgan hamda gender xususiyatlarga ega bo'lmagan birliklarga bo'lindi.

Tadqiq etilayotgan tillarda ayol va erkaklar nutqida erkalashning pragmatik metod yordamida tadqiq etilishi natijasida EFSMning gender xususiyatlarining farqli va o'xshash

Khushnuda Samigova

Professor, Doctor of Sciences in Philology (DSc)
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: kabsam@yandex.ru
ORCID: 0000-0002-1071-8388

SOCIOLINGUISTIC AND GENDER FEATURES OF ENDEARMENT IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

ABSTRACT

The article examines the sociolinguistic and gender characteristics of the functional-semantic field of terms of endearment (FSFTE) in English and Uzbek languages. Words, phrases, and phraseological units expressing endearment in English and Uzbek are used both generally in the speech of a particular people and within smaller groups. Specifically, the article describes the similarities and differences in how FSFTE is expressed in the speech of relatives, friends and brothers, lovers, in literary and colloquial language, its dialectal forms, and its expression in relation to age. As a result, the percentage indicators of the most actively used lexical units of endearment in English and Uzbek languages were determined. These are the words dear, darling, sweet, honey, baby, love in English, and asalim, jonim, shakarim, shirinim, novvotim in Uzbek.

Furthermore, the gender characteristics of FSFTE were studied through component analysis and with the help of contexts. In English, words, phrases, and phraseological units expressing endearment were divided into units with and without gender characteristics based on markers such as wife, husband, girl, woman, boy, man, male, guy, and in Uzbek based on markers like ma'shuqa, mahbuba, juvonlar, xotin-qizlar, ayol, ona, o'g'il bola, er, yigit, o'g'il.

The pragmatic study of endearment in men's and women's speech revealed gender differences and similarities in FSFTE in the examined languages. In colloquial speech, men's endearments are simple, whereas in literary

jihatlari mavjudligi aniqlandi. Qiyoslanayotgan tillarning soʻzlashuv uslubida erkaklar nutqida erkalash oddiy koʻrinishga ega, adabiy tilda esa kuchaytiruvchi va stilistik vositalar orqali ifoda etiladi. Ingliz ayollari oʻz sevgilisiga erkalash maʼnosini ifoda etuvchi jummalarni tuzishda ustundirlar, oʻzbek ayollari esa Sharq madaniyatiga xos boʻlgan “ibo”, “hayo”, “uyat” kabi tushunchalar sababli erkaklarga qaratilgan erkalashni ehtiyotkorlik bilan tanlaydilar. Mazkur tillarda erkaklarga oila boshligʻi, farzand, sevimli yor sifatida, ayollarga esa yor sifatida hamda ularning xarakter va tashqi koʻrinishlariga qarab erkalash ifoda etiladi.

Kalit soʻzlar: erkalash, sotsiolingvistika, gender xususiyatlar, funksional-semantik maydon, komponent tahlil, stilistik boʻyoqdorlik, soʻzlashuv nutqi, qarindosh-urugʻchilik munosabatlari, pragmatik tahlil, leksik birliklar.

KIRISH

Sotsiolingvistika – lisoniy va ijtimoiy hodisalar oʻrtasidagi munosabat va bogʻliqlikni oʻrganuvchi fandır. Ushbu fan tilning ijtimoiy vazifalarini, muloqotning turli ijtimoiy vaziyatlardagi oʻzgarishi va til orqali muayyan ijtimoiy voqelikni aks ettirish yoʻllarini oʻrganish muammolari bilan shugʻullanadi. Uning asosiy maqsadi esa, u yoki bu jamoani tashkil etgan odamlar tildan qanday foydalanishlari va shu til faoliyat koʻrsatayotgan jamiyatdagi oʻzgarishlar til taraqqiyotiga nechogʻlik taʼsir koʻrsatishini oʻrganishdan iborat [Rahimov, 2007].

Til kishilik jamiyatida eng muhim aloqa quroli boʻlib, insoniyatning uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratilgan barcha madaniy va milliy boyliklarini saqlaydigan va ularni avloddan-avlodga etkazib beradigan asosiy vosita boʻlib xizmat qiladi.

Maʼlumki, tilda soʻzlashish va fikrlashish boʻlishi uchun kishilik jamiyati boʻlishi (sotsial muhit) shart. Til nasldan naslga, avloddan avlodga oʻtadigan irsiy hodisa emas, balki u jamiyat taraqqiyotining mahsulidir [Sodiqov va boshq., 1981; 17-18]. Demak, til ijtimoiy hodisa ekan, uni ijtimoiy sharoitlarga bogʻlab oʻrganish tilshunoslikning talablaridan biridir.

Sotsiolingvistika faqat tilshunoslik va jamiyatshunoslik fanlari orasidagi munosabatlarni emas, balki falsafa, ijtimoiy psixologiya va etnografiyaga oid masalalarni ham qamrab oladi. U millatlararo aloqa vositasi muammosi bilan ham shugʻullanadi. Zamonaviy tilshunoslikda sotsiolingvistika atamasi ikki maʼnoda ishlatiladi. Birinchisi, til va jamiyat oʻrtasidagi oʻzaro munosabat, yaʼni jamiyat hayoti va rivojlanishida tilning roli va aksincha, tilning rivojlanishida jamiyatning ahamiyati boʻlsa, ikkinchisi, tilda millatning ijtimoiy guruhlanishi munosabati bilan boʻladigan farqlardir [Iriskulov, 2008].

S.Usmonovning aytishicha, tashqi va ichki tilshunoslik tilni xalq tarixi,

madaniyati, siyosiy qarashlari, adabiyoti, geografik joylashishi bilan bog‘lab tekshirishi lozimdir [Usmonov, 1972; 90-91].

Xalqni o‘rab turgan barcha hayot jabhalari: ommaviy axborot, din, san‘at, ilmfan, umumiy-siyosiy xatti-harakatlar va boshqa vositalar tilga o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Ijtimoiy-tarixiy sharoitlar, jamoaning ish yuritish tizimi, aloqadagi tillar hamda mavjud til shakllarining barchasi tilning rivojiga ta‘sir ko‘rsatuvchi asosiy omillar bo‘lib hisoblanadi [Avrorin, 1975; 11].

Ma‘lumki, tilning lug‘ati mazkur tilda so‘zlashuvchilarning barchasiga umumiy, tushunarli bo‘lgan umummillat toifasidagi so‘zlardan tashqari, millatning ijtimoiy guruhlanishi bilan bog‘langan bo‘lishi ham tabiiy. Millatning ijtimoiy guruhlari genetik jihatdan ayrim qabila va aholining hudud belgisiga ko‘ra ajralgan ayrim guruhlari bilan birga, jamiyatdagi sinfiy tabaqalanishga, kasb-hunarga ko‘ra ajralgan aholi guruhlari ham kiradi. Sotsial tabaqalar nutqidagi o‘ziga xosliklar, guruhlardagi o‘zaro muloqot xususiyatlari, turli guruhlar orasidagi muloqot vaqtida qanday so‘zlar va grammatik konstruksiyalarning tanlanishi tilning ishlatilish turlarining paydo bo‘lishiga olib keladi. Shu bilan birga, o‘zgarishlar gapiruvchilarning yoshiga, jinsiga, ma‘lumotiga, nutq sodir bo‘layotgan muhitga ham bevosita aloqadordir. Til o‘zgarishining ichki omillari esa, bu gapiruvchining xohish-istagiga bog‘liq emas. Ular obyektiv o‘zgarishlardir. Bunda ayrim shaxslarning nutqlarida uchrashi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarni oldindan bilish mumkin emas. Chunki, bunday o‘zgarishlar mazkur shaxsning kim bilan qanday sharoitda suhbatlashishi, bu nutqning rasmiy yoki norasmiyligi va boshqa shunga o‘xshash sabablarga bog‘liq bo‘ladi. Jamiyat taraqqiyoti tillarning ijtimoiy vazifalarining ortib borishiga olib keladi. Hamma adabiy tillarning lug‘at tarkibi kengayib, boyib boradi. Ijtimoiy taraqqiyot sur‘atining jadallashib borishi adabiy tillarda o‘z aksini topadi. Qo‘shni xalqlar tillarining bir-biriga o‘zaro ta‘siri kuchayaveradi. Millatlararo aloqa vositasi vazifasini o‘tovchi tilning ijtimoiy roli ortib boradi va uning boshqa tillarga ta‘siri ham o‘sadi. Ikki tillik rivojlanib boradi. Mamlakatlararo aloqalarning rivojlanishi mazkur mamlakatlarda yashovchi xalq va elatlar madaniyatining bir-biriga yaqinlashuviga shart-sharoitlar yaratib beradi. Tillar ham bir-biriga ta‘sir ko‘rsatib boyib boradi; bunday hamkorlik tillarning ichki rivojlanishiga ham sabab bo‘ladi [Iriskulov, 2008].

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqotda ingliz va o‘zbek tillarida erkalash funksional-semantik maydonining (EFSM) sotsiolingvistik va gender xususiyatlarini o‘rganish uchun XX-XXI asrlarda yaratilgan badiiy asarlar, gazeta, jurnal, publitsistik materiallar, radio hamda televideniyeda yangragan nutq namunalari, ikki tilli va izohli lug‘atlar, Internetdan to‘plangan materiallar tahlil qilindi.

Erkalash ma‘nosini ifoda etuvchi leksik birliklarning gender xususiyatlarini aniqlash uchun komponent tahlil metodidan foydalanildi. Bunda so‘zlarning lug‘aviy izohlari tarkibidagi gender xususiyatlarni ko‘rsatuvchi markerlar (ingliz tilida: man, woman, girl, boy, male, guy; o‘zbek tilida: ma‘shuqa, mahbuba, juvonlar, xotin-qizlar, ayol, ona, o‘g‘il bola, er, yigit, o‘g‘il) asosida tahlil o‘tkazildi.

O‘zbek tilida informantlar orasida so‘rovnomalar o‘tkazildi va ularning natijalari tahlil qilindi. So‘rovnomalar natijasiga ko‘ra, erkalash ma’nosini ifoda etuvchi leksik birliklarning foiz ko‘rsatkichlari aniqlandi va statistik tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida taqqoslash metodi ham qo‘llanilib, ikki tildagi erkalash ma’nosini ifoda etuvchi leksik birliklarning o‘xshash va farqli jihatlari, ularning sotsiolingvistik va gender xususiyatlari qiyosiy tahlil qilindi. Qiyoslash orqali ingliz va o‘zbek tillarida erkalashning umumiy va ayrim guruhlar ichida qo‘llanilishi, adabiy va so‘zlashuv tilida, shevalarda, qarindosh-urug‘chilik munosabatlarida, sevishganlar nutqida, do‘stlar o‘rtasida va turli yoshdagi insonlar nutqidagi xususiyatlari o‘rganildi.

Inglizabon informantlar orasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijasiga ko‘ra, *darling, sweetheart, babe, a‘moroso, beautiful, honey, hon, sweetie, baby, lover, the Mrs.* kabi leksik birliklar, qolaversa, yorlarining ismlari orqali erkalashni ifoda etishlari ma’lum bo‘ldi. Bu natijalar kontekstual tahlil metodidan foydalanib chuqurroq o‘rganildi.

Pragmatik tahlil metodi yordamida erkak va ayollar nutqida erkalashning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlandi. Bunda erkalash ma’nosini ifoda etuvchi so‘zlar, so‘z birikmalari va frazeologik birliklarning gender xususiyatlari kontekstda tahlil qilindi va ular erkaklar hamda ayollar nutqida qo‘llanilishiga ko‘ra farqlar aniqlandi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Ingliz va o‘zbek tillarida erkalash funksional-semantik maydonining tadqiqi shuni ko‘rsatadiki, EFSMning sotsiolingvistik xususiyatlariga ko‘ra erkalash turli ko‘rinishlarga ega. Bular umumiy va ayrim guruhlar ichida qo‘llaniluvchi erkalash, so‘zlashuv va adabiy tilga xos erkalash, erkalashning shevalardagi ko‘rinishi, qon-qarindoshlik munosabatida erkalash, sevishganlar nutqidagi erkalash, do‘stlar o‘rtasidagi erkalash hamda turli yoshdagi insonlar nutqida erkalash kabi turlarga bo‘linadi. Har bir turdagi erkalash o‘zining leksik-semantik xususiyatlariga ega bo‘lib, ular ijtimoiy muhit va vaziyatga qarab turlicha namoyon bo‘ladi.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek tillarida erkalash ma’nosini ifoda etuvchi so‘zlar, so‘z birikmalari va frazeologik birliklar adabiy til va so‘zlashuv nutqida, qarindoshlar, do‘stlar, sevishganlar o‘rtasida, turli yoshdagi insonlar muloqotida va shevalarda o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Har ikki tilda ham erkalash birliklari kontekstga qarab turli ma’no va uslubiy bo‘yoqqa ega bo‘ladi, ammo ularning qo‘llanilishi va ifodalanishida milliy-madaniy farqlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Umuman olganda, EFSM sotsiolingvistik xususiyatlariga ko‘ra quyidagi klassifikatsiyalarga bo‘linadi:

Umumiy va ayrim guruhlar ichida qo‘llaniladigan erkalash

Izlanishlar natijasiga ko‘ra, ingliz va o‘zbek tillarida erkalash ma’nosini ifoda etuvchi so‘zlar, so‘z birikmalari va frazeologik birliklar umumxalq hamda ayrim guruhlar (oila ichida, do‘stlar nutqida, sevishganlar suhbatida va boshq.) tomonidan ifoda etiladi. Umumiy erkalash ma’nosini ifodalovchi birliklar ingliz va o‘zbek xalqining barcha vakillariga aynan erkalash ma’nosida ayon bo‘ladi. Inglizabon informantlardan olingan ma’lumotga ko‘ra, *angel, darling, dearest, ducky, girlie,*

honey, love, poppet, pet, sweetie, sweetheart, sausage, baby, babe, treasure, lover, sugar, cupcake, sunshine, dear, mate kabi so‘zlar erkalash ma’nosida umumiy ravishda ifoda etiladi. Kichik bir guruh ichida erkalashning ifodalanishiga esa *carrot, honey bee, patootie, you are my present, my future, my gum drop* kabi misollarni keltirish mumkin. Bu kabi ko‘rinish adabiy va so‘zlashuv nutqida uchrasa-da, har bir inglizabon kishi ularni nutqda qo‘llamasligi mumkin. Ularning ma’nolari kontekstlarga qarab aniqlanadi. Masalan:

*“Jimmy is five ears old. His Mother calls him **the Carrot**. He has red hair, red lips, red ears, red hands and a red face. Mother often says to him: “My little **Carrot, darling**, give me your right hand”* [Webster, 1967; 187].

Misolda ona o‘z farzandini *carrot* so‘zi orqali erkalaydi. Mazkur so‘z ingliz tilida umumiy tarzda erkalash ma’nosida qo‘llanilmasa-da, birgina shu oila a‘zolari nutqida ifoda etiladi.

*“So, I’ve decided to call you **Dear Daddy-long-Legs**. I hope you won’t mind. It is just a **private pet name** – we won’t tell Mrs. Lippett”* [Webster, 1967; 17].

Mazkur xatda qizcha o‘z xomiysini erkalab *Dear Daddy-long-Legs* deb nomlaydi. *Daddy-long-Legs* kabi erkalash faqat mazkur shaxs va qizaloqqagina ayon bo‘lgan erkalashning bir ko‘rinishidir.

O‘zbek tilida ham *asalim, shakarim, toychog‘im, jonim, novvotim, o‘rgilay, aylanay, bolam, qizalog‘im, do‘mbog‘im, oppog‘im, shirinligim (bo‘ylaringdan aylanay)* kabi misollar barcha o‘zbek xalqi uchun erkalash ma’nosida ifoda etiladi.

Demak, tadqiq etilayotgan tillarda mazkur hodisaning o‘xshash taraflari, erkalash natijasida guruhlar ichida ismlar qisqarishi, laqablar kelib chiqishi hollarining mavjudligidir. Farqli jihatlari esa, guruhlar ichida erkalash o‘zbek tilidan farqli o‘laroq ingliz tilida behayo so‘z va so‘z birikmalarida ifodalanishi bilan izohlanadi.

So‘zlashuv va adabiy tilga xos erkalash

Lingvistik tabaqalanishning turli ko‘rinishlari tahlil qilinganda, avvalo, so‘zlashuv va adabiy tillardagi tabaqalanish nazarda tutiladi. Adabiy andozani jamiyatning muayyan taraqqiyot bosqichida to‘g‘ri va namunali deb qabul qilingan til tizimining jamoada ishlatilishining qandaydir birligi deb hisoblasak, so‘zlashuv tili esa an’anaviy tanlov uslublaridagi o‘zgarishlar, o‘ziga xos til hodisalarining ijtimoiy-uslubiy o‘zgarishi, jamiyatning ma’lum rivojlanish bosqichida to‘g‘ri va namunali deb qabul qilinmagan hamda odatda qo‘llanishdan chiqib ketish yoki ba’zan unda qolish imkoniyatlariga ham ega bo‘lgan birlikni tashkil etadi [Rahimov, 2007; 20].

Tadqiqot jarayonida erkalash ma’nosini ifoda etuvchi so‘zlar, so‘z birikmalari va frazeologik birliklar ingliz hamda o‘zbek tillarida adabiy va so‘zlashuv til me’yorlarida ifoda etilishi kuzatiladi. Masalan, ingliz tilida *my jewel, an apple of my eye, my ocean, my past, my present, my ladybird* kabi misollar adabiy til unsurlarida ifoda etilishi, so‘zlashuvda esa *my love, sweet, honey, darling, baby, sweetheart, dear* kabi ko‘rinishga ega bo‘lishi ma’lum bo‘ldi. Masalan:

*And now, **my love, my seraph fair**, awake!*

Thou art my heaven, and I thine eremite [Auden & Pearson, 1977; 405].

Ingliz tili so‘zlashuvda misollar quyidagilar:

“Well,” he said, “**dearest**, don’t feel badly about it” [Dreiser, 1972; 59].

O‘zbek tilida ham so‘zlashuv va adabiy til doiralariidagi erkalash o‘ziga xos ko‘rinishga ega. Adabiy tildagi erkalashning so‘zlashuv tiliga qaraganda stilistik bo‘yoqdorlik va bo‘rttirish kabi xususiyatlari kuchliroqdir. So‘zlashuv tilida erkalash *mening asolim, shakarim, do‘mbog‘im, jonim, shakarim, qo‘zichog‘im, oppog‘im, novvotim, erkatoym* kabi, adabiy tilda esa *azizam, dildor, mohitabonim, sanamginam, volidai muxtaroma, sarviravonim, malikam, farishtam, malagim, oromi jonim* kabi ko‘rinishga egadir. Masalan:

Sen ko‘kdagi malagim, men yerda yupun, xorman,

Sevarmi deb so‘radim, yoqqan har zarra qordan [Muhammad, 2007; 104].

Quyida esa so‘zlashuv nutqida misollar quyidagilar:

– **Voy, o‘zim o‘rgilay sendan**, – *shoshib oshxona tomon yurdi xola*. – **Hozir bolajonim** [Karimova, 2004; 30].

So‘zlashuv tilining bir qismi bo‘lmish jargonda ham (ko‘cha tili) erkalashning o‘ziga xos ko‘rinishi mavjudligi kuzatildi. Ingliz tilidagi “Sleng va nostandart ingliz tili lug‘ati” (“A Dictionary of Slang and Unconventional English”)ning ma‘lumotiga ko‘ra, ushbu tilda *snookhum, tootsie, wootsie, muggle, fancy man, crumpet, buttercup, bird, amoroso, cupcake, ducky* kabi jargon doirasiga kiruvchi so‘zlar erkalash ma‘nosini ifodalaydi [Partridge, 1964]. Aksincha, o‘zbek tilida XX-XXI asrlarda yaratilgan badiiy asarlar, gazeta, jurnal, publitsistik materiallar, radio hamda televideniya yangragan nutq namunalari, ikki tilli va izohli lug‘atlar, Internetdan to‘plangan materiallar, informantlar orasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijalari asosida to‘plangan materiallar ichida erkalashni ifoda etuvchi jargon so‘zlar uchramadi.

Qiyoslanayotgan tillarning adabiy va so‘zlashuv tilidagi erkalashning o‘xshash jihatlari shundaki, u adabiy tilda stilistik uslublarga boy obrazli so‘z va iboralarda ifoda etilsa, so‘zlashuv nutqida esa aksincha, unchalik bo‘rttirib ifoda etilmaydi. Ingliz tilida o‘zbek tilidan farqli ravishda erkalash jargon so‘zlari orqali nutqda keng tarzda ifoda etiladi. Yana shuni ta‘kidlash joizki, *azizim – dear* so‘zlari o‘zbek tilida adabiy tilga xos ko‘rinish bo‘lsa-da, ingliz tilida esa bu so‘z so‘zlashuvda faol ifoda etiladi.

Erkalashning shevalardagi ko‘rinishi

Sotsiolingvistika tilni dialektlarda ham o‘rganishni o‘z vazifalaridan biri deb biladi. Ingliz va o‘zbek tillarida erkalash shevada o‘ziga xos ko‘rinishga ega. “Merriam-Webster akademik lug‘ati” (“Merriam-Webster’s Collegiate Dictionary”)dagi ma‘lumotlarga qaraganda [Merriam-Webster, 2003], Britaniya variantida *bird, shap, dolly bird, duck, sweetie, poppet* so‘zlari erkalash ma‘nosida qo‘llaniladi. *Toad* (qurbaqa) so‘zi ham shevada *tad*, Britaniyaning sharqida shevada *bunny* so‘zi *bun* kabi ko‘rinishga ega. AQShning janubiy-g‘arbida ispan tilidan kelib chiqqan *caballerro* (sevgili, yor) so‘zi ham shular jumlasidandir. Britaniyada *bonny* so‘zida erkalashning ifoda etilishi ushbu tildagi erkalashda o‘ziga xos hududiy shevaga xoslik mavjudligini ko‘rsatadi. Informantlardan olingan so‘rovnomalardan ma‘lum bo‘lishicha, Britaniyaning shimoliy qismida ‘love’ va ‘duck’ so‘zlari janubiy qismga qaraganda ayollarga nisbatan keng qo‘llaniladi. *My lover* so‘z birikmasi esa mazkur

mamlakatning g‘arbiy qismida qo‘llanilishi odatiy holdir. *Honey, sugar* so‘zlari esa Amerika-ingliz tilida uchrashi keng tus olgan. *Mate* (do‘st, yor) so‘zi London shevasiga, *marrow* (do‘st, yor) so‘zi esa Angliyaning shimoli-sharqiy qismi shevasiga xos ko‘rinishdir.

O‘zbek tilida ham erkalash shevada o‘ziga xos xususiyatga egadir. Masalan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan olingan ma’lumotga ko‘ra [Ma’rufov, 1981; 73], erkalashni ifoda etuvchi *onajon* so‘zi shevada *ayajon* (*Qo‘qon, Marg‘ilon, Samarqand*), *opajon* (*Toshkent*) deb aytilishi, *bolam* so‘zi *bacham, bachcham* bo‘lishi, *oyi* so‘zining *moma* bo‘lishi, *qaqildoq* so‘zi shevada *qaqajon* bo‘lishi kabi ko‘rsatkichlar mavjuddir. Tadqiqot natijasiga ko‘ra esa, *aylanay, o‘rgilay, mening asalim* erkalash ma’nosini ifodalovchi so‘z va so‘z birikmalar Toshkent shevasida *aylaniy, o‘rgiliy, mani asalim* deb ifodalansa, Xorazm shevasida esa *ananayin, o‘rgilayin, manin asalim* kabi talaffuz qilinadi. *Aylanayin* so‘zi esa Samarqand shevasiga xos bo‘lgan ko‘rinishdir. *Mochchi, mo‘chchi, mazzim, axay, jo‘jgingnan aylanin, miqqi, jujuinan* kabi so‘z va so‘z birikmalari ham erkalash ma’nosida Xorazmda ifoda etilishi ma’lum bo‘ldi. *Tillocham, tillo qizim* kabi erkalash Buxoro shevasiga xos ekanligi aniqlandi.

Demak, ingliz va o‘zbek tillarida erkalash, o‘z navbatida, turli hududlarga xos shevada ham o‘z ifodasini topadi. Mazkur tillarda bir o‘zakli so‘zlar shevada turlicha talaffuz etilishi kuzatilishi (*love – luv, toad – tad; lover – luvver / aylaniy – ananayin – aylanay; o‘rgilay – o‘rgiliy*) qiyoslanayotgan tillarda erkalashning o‘xshash jihatlari mavjudligini ko‘rsatdi. Ingliz tilida o‘zbek tilidan farqli o‘laroq shevada erkalash ma’nosida turli hududlarda har xil ma’nodagi so‘zlarning ishlatilishi hollari kuzatilsada (ayollarga nisbatan Yorkshirda *luv*, Lankashirda *chuck*, Birmingemda *bab*, Taynsaydda *hinny, hin*), o‘zbek tilida ayni bir so‘zning turlicha ko‘rinishda uchrashi kuzatildi (ayollarga nisbatan *ayajon, oyijon, opajon, momojon*).

Qon-qarindoshlik munosabatida erkalash

Tadqiqotda erkalash qiyoslanayotgan tillarda qarindosh-urug‘chilik doirasida ham o‘ziga xos ko‘rinishga egadir. To‘plangan misollar erkalash rasmiy hollardan farqli o‘laroq, oilaviy sharoitlarga xos xarakterga ega ekanligini ko‘rsatdi. Bunda ishtirok etuvchilar bir-biriga *ota-o‘g‘il, ona-qiz, buvi-nabira, buva-nabira, jiyan-xola, er va xotin* hamda shu kabi boshqa qarindoshlik munosabatlarida uchradi. Masalan:

Ota-ona va farzand munosabatlarida: *John Jarndyce (to Esther): “I am your father now, my child. Don’t cry. This is a day of joy. Today I give you to him with a father’s love”* [Dickens, 1992; 102].

Er va xotin nutqlarida: *Richard held his wife close. Ether knew that nothing would change the love between the two cousins. “Esther, my dear, will cousin John ever forgive me?”* [Dickens, 1992; 77].

Xola (amaki) va jiyan munosabatlarida:

Auntie, did you feel no pain,

When you fall from the apple tree? [Judish et al., 1981; 21]

O‘zbek tilida esa *o‘zimning dadajonim, o‘g‘lonim, bolajonim, qizalog‘im, oyijonginam, tog‘ajonim, onaginam* va boshqa misollar qarindosh-urug‘lar o‘rtasidagi munosabatlarda ifoda etiladi. Masalan:

Ota-ona va farzand munosabatlarida:

– **Onajonim**, *dunyolarim toraydi, hamma ranglar bir xil bo‘ldi – qoraydi...*

[Sodiqova, 2007; 109].

O‘g‘lonim, *muhabbat boshqa, ro‘zg‘or boshqa narsa* [Sodiqova, 2007; 136].

Buva va nabira munosabati: *Aslim buvaning odati qiziq: Sarvar, Javlonlar hovlida chuvur-chuvurni avjiga oldirishsa, uydan chiqadi-da: “Sekinroq, toychoqlar! Erkatoylar! Sekinroq!” – deb baqirib beradi* [Hakim, 2003; 12].

Demak, erkalashning pragmatik ma‘nosi ham uchraydi. Tadqiq etilayotgan tillarda erkalashning yana bir o‘xshash jihatlari qarindosh-urug‘chilik va yaqin insonlar munosabatida ifoda etilishi bilan xarakterlanadi.

Sevishganlar nutqidagi erkalash

Erkalash qiyoslanayotgan tillarda aynan sevishganlar nutqida ham o‘ziga xos ko‘rinishga ega bo‘lib, bunda insonlar erkalashni o‘z mahbub va mahbubalariga qarata ifodalaydilar. Bu kabi hodisa ishtirokchilari *yigit* va *qiz*, bo‘lg‘usi *kelin* va *kuyov*, *er* va *xotin*, *buva* va *buvi* kabi juftliklardir. Ularning nutqlarida erkalash stilistik uslublar orqali ifodalangan erkalash ma‘nosini ifoda etuvchi so‘zlar, so‘z birikmalari va frazeologik birliklarga boy ekanligi bilan boshqa guruhlardan ajralib turadi. Masalan, ingliz tilida mahbub va mahbubalarga *my love, my heart, my darling, sweet, my lady, my man, my soul, my life, my dove, you are my sweetheart* kabi birliklar orqali erkalash ifodalanadi. Inglizabon informantlardan olingan javoblarga ko‘ra, *darling, sweetheart, babe, a‘moroso, beautiful, honey, hon, sweetie, baby, lover, the Mrs.* kabi leksik birliklar, qolaversa, yorlarining ismlari orqali erkalashni ifoda etishlari ma‘lum bo‘ldi. O‘zbek tilida *jonim, parivash, farishtam, sevgilim, arslonim, begim, mening jonim, jahonim, sevgilim, mahbubam, oromijonim, sarviravonim, nigoram, diloromim, hayotim, jufti-halolim, azizam, muhabbatim* va shu kabi erkalash ma‘nosini ifoda etuvchi birliklar ifoda etiladi. Ular ko‘proq metafora, takrorlash kabi stilistik vositalarda namoyon bo‘ladi. Masalan:

*Catherine (to husband): “That was lovely, **darling**. Oh, you are so good to me”* [Hemingway, 1971].

Shu kabi hodisa o‘zbek tilida ham kuzatiladi:

– *Bir qarang, bir qarang, betim lablaringizga tegay-tegay deb turibdi. Tag‘in o‘pib olmang, **jonginam*** [Mirzakalon, 1976; 202].

*Zulmat uvlaydi uzun, ayt, **azizam**, qaydasan* [Muhammad, 2007; 118].

Sevishganlar nutqida erkalashning ingliz va o‘zbek tillaridagi farqi shundaki, inglizabon ayollar erkaklar kabi erkalash so‘zlarini bemalol, tortinshsiz ifoda etsalar-da, o‘zbek tilida sevishganlar nutqida erkalash so‘zlashuv tilida ochiq-oydin ifoda etishlariga sharqona madaniyatga xos odob, hayo, ibo kabi fazilatlar yo‘l qo‘ymaydi.

Do‘stlar o‘rtasidagi erkalash

Erkalash do‘stona munosabatlarda ham namoyon bo‘ladi. Bunda, asosan, bir guruhga tegishli, tengqurlar, do‘st-u birodarlar, dugonalar nutqidagi erkalash inobatga olindi. Do‘stlararo *dude, babe, girl-friend, buddy, partner, side kick, mate, pal, bud, jo* kabi erkalash ma‘nosini ifoda etuvchi so‘zlar va so‘z birikmalari qo‘llaniladi hamda

ba'zi hollarda esa ularning ismi yoki laqablari orqali erkalash ham uchrab turadi. Masalan:

*John Anderson, my jo, John...
Now we maun totter doon, John,
And hand in hand we will go,
And sles together at the foot,
John Anderson, my jo* [Stroganskaya, 1967; 106].

O'zbek tilida esa o'rtoqjon, qadrdonim, sirdoshim, og'aginanam, dugonajon kabi misollarni keltirish mumkin. Masalan:

– *Hay, o'rtoqjon, doim shu yerda navbatchilik qilasanmi? – deb so'radi Gulshan* [Sohib, 1965; 231].

Misollardan ma'lum bo'lishicha, do'st va birodarlar o'rtasida erkalash ingliz tilida *dear, dearest* kabi so'zlar, *my* birlikdagi egalik olmoshi yordamida, qolaversa, ismlarni qisqartirish orqali, o'zbek tilida esa *do'st, o'rtoq, dugona, rafiq, qadrdon* kabi so'zlarga *-jon, -gina* erkalash hamda *-im* I shaxs birlikdagi egalik suffikslarini qo'shish, ismlarni qisqartirish yordamida hosil bo'ladi.

Demak, do'stona munosabatlarda erkalashning ingliz va o'zbek tillarida analitik jihatlar bilan farqlanish hollari uchraydi.

Turli yoshdagi insonlar nutqida erkalash

Tadqiq etilayotgan tillarda erkalash qaratilayotgan hamda nutq so'zlayotgan shaxsning yoshi muhim ahamiyat kasb etadi. O.Safarov bu borada ushbu fikrlarni beradi: “Shuni ta'kidlash zarurki, erkalamalar etti yoshgacha bo'lgan bolalarga nisbatan qo'llanilsa-da, aslida bolalarni erkalash jarayoni 11-13 yoshga to'lgunlaricha va hatto undan keyin ham davom etadi... Erkalamalar 3 yoshgacha bo'lgan kichkintoylarga aytilsa, boshqa bir katta guruhi yetti yoshgacha bo'lgan bolalar belchasidan quchib, gohida biror a'zosini uqalab, gohi bag'riga bosib, goh talpinishlardan ilhomlanib va yana shularga o'xshash turli-tuman munosabatlar jarayonida o'sha xarakterga mos tushadigan ohangda ijro etiladi” [Safarov, 1983].

Q.Musayev *erkalash* terminini *shirinsuxanlik* deb nomlaydi. Mazkur olim bu borada quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi: “*Shirinsuxanlik* ohangi boshqa tillardagi singari o'zbek tilida yana turli-tuman lisoniy vositalar, chunonchi “chirog'im”, “ovunchog'im”, “erkatoyim”, “oppog'im”, “jonginam”, “jonimni qoqay”, “azizim” kabi hissiy-ta'sirchan so'zlar hamda qator barqaror so'z birikmalari yordamida yaratiladi. Bunday sinonimik vositalar tarjimada har doim bir-birini almashtiravermasdan, ayrim matniy holatlarda ixtisoslashgan holda qo'llaniladi. Masalan, “erkatoyim”, “ovunchog'im”, “jonimni qoqay” birliklari, odatda, keksaroq ayol kishi tomonidan ko'proq farzand yoki nevaraga qarata aytilsa, “oppog'im” so'zi erkak tomonidan xotin kishi yoki qiz bolaga nisbatan qo'llaniladi. Tarjimada bunday tafovutni hisobga olishgina matnning tabiiy jarangdorligini vujudga keltiradi. Quyidagi misol tarjimasida “erkatoyim” so'zi kampir tomonidan nevarasiga qarata aytilgan:

“*Ved, vresh, podi, razboynik, ne spish? Ne spish, mol, goluba-dusha?*” / *Ha yolg'onchi, shayton, bilaman, uxlaganing yo'q. Basharangdan ham ko'rinib turibdi. Uyg'oqmisan, erkatoyim?*” [Musayev, 2005; 165].

R.Qo‘ng‘urov o‘z tadqiqotida quyidagi fikrlarni keltiradi: “3-5 yoshlardagi bolaning ismini qisqartirib, uning oti Faxriddin bo‘lsa, Faxri shaklida erkalash mumkin. Lekin 60-70 yoshlardagi kishini Faxri deb erkalash mumkin emas” [Qo‘ng‘urov, 1980; 45].

Ingliz va o‘zbek tillarida yosh jihatdan erkalash ma’nosini ifoda etuvchi leksik birliklar o‘ziga xos xususiyat kasb etadi. Masalan, ingliz tilida *my baby, my child, my sonny, my sweet sister, my little girlie, baby, sonny, pretty sweet girl, my child, sweet kid, my boy* va shu kabi so‘zlar hamda so‘z birikmalarini yosh jihatdan kattaroq insonlar o‘zlaridan kichikroq kishilarga qarata ifoda etadilar. Masalan:

“*Oh, dear, oh dear!... My son!*” exclaimed Mrs. Kane [Dreiser, 1972; 196].

My dear father, granny, my dear mammy, my auntie, my dear daddy, granddaddy kabi birliklarni esa yosh jihatdan kichik insonlar o‘zlaridan katta insonlarga qarata erkalash ma’nosida ifodalaydilar. Masalan:

“*Daddy, Daddy, my dear own Daddy!*” screamed Lilly. “*Speak to me...Daddy? Let me kiss you, dear*” [Skul’te, 2005; 357].

Ingliz tilida ayrim erkalash ma’nosini ifoda etuvchi leksik birliklar adresatning yoshi inobatga olinmasdan ham ifoda etiladi. Masalan, *sweet, dear, darling, sweetheart, honey* va boshqalar. Kichik yoshdagi bolalarga *nipper, little’uns, duffer, doll, baby, suga, little man* kabi birliklar yordamida yoki bolalarning ism va laqablari orqali erkalash ifodalari qo‘llaniladi. Yosh jihatdan katta insonlarga esa, *pops, aunty, gramps, granny, duffer, gran* kabi misollarda hamda ularning ismlari orqali erkalash ifoda etiladi.

Tadqiqot jarayonida o‘zbek tilida ham yosh jihatdan erkalashning o‘ziga xos xususiyatlari mavjudligi kuzatildi. Nutq so‘zlayotgan inson o‘zidan yosh jihatdan kichik insonlarga nisbatan *toychog‘im, popukkinam, qizcham, qizalog‘im, bo‘talog‘im, do‘mbog‘im, erkatoiy, bolajonim, chirog‘im* kabi so‘zlardan foydalansa, yosh jihatdan katta kishilarga esa *onajonim, onaginam, mehribonim, uyimning farishtasi, validai mehribonim* kabi ko‘rinishdagi birliklarni qo‘llaydi. Masalan:

– *Validai mehribonim, – dedi Abdulhasan, – men Abdulhasan, sening jigargo‘shangman, sen mening validamsan. Parvardigor haqqi, ey, validai mehribonim, menga rahm qil* [Qahhor, 1974; 33].

O‘zbek tilida yoshi katta insonlar, ayniqsa, ayollar nutqida *aylanay, o‘rgilay, qoqindiq, girgittan, bolam, o‘zim o‘rgilay* kabi erkalash ma’nosini ifoda etuvchi birliklar uchraydi. Masalan:

– *Voy, o‘zim o‘rgilay sendan, – shoshib oshxona tomon yurdi xola. Hozir, bolajonim* [Karimova, 2004; 30].

O‘zbek tilida *azizim, jonim, chirog‘im, aylanay, o‘rgilay, jonim qoqindiq, girgittan* kabi misollar, o‘z navbatida, barcha yoshdagi adresatlarga qarata ifoda etilishi mumkin.


Demak, ingliz va o‘zbek tillarida yosh jihatdan erkalash kichik va kattalar tilida o‘ziga xos ko‘rinishga egadir. Mazkur tillarda adresat va adresantning yoshi inobatga olinib qo‘llaniluvchi, qolaversa, yosh jihatdan barchaga bir xilda ifoda etiluvchi erkalash bilan bog‘liq birliklarning mavjudligi ham tadqiq etilayotgan tillarda

erkalashning o'xshash jihatlaridir. O'zbek tilida ingliz tilidan farqli ravishda kattalar nutqida erkalashning fe'l asosidagi modal so'zlarda ifoda etilishi erkalashning mazkur tillardagi farqini namoyon etadi.


Ingliz va o'zbek tillarida EFSMning sotsiolingvistik xususiyatlariga ko'ra klassifikatsiyasi shuni ko'rsatdiki, ingliz va o'zbek tillarida erkalash turli guruh vakillari nutqlarida o'z ifodasini topadi.

Tadqiq etilayotgan tillarda to'plangan materiallar va so'rovnomalar natijasiga ko'ra, nutqda eng faol qo'llaniladigan erkalash ma'nosini ifoda etuvchi leksik birliklarning foiz ko'rsatkichlarini quyida keltirib o'tamiz (1- va 2-rasmlarga qarang):

1-rasm.



2-rasm.



Ingliz tilida: *dear* (*my dear, dear boy, m'dear* va boshq.) – 28%, *darling* (*my darling, darling one's* va boshq.) – 20%, *sweet* (*my sweet, sweetheart, sweetums* va boshq.) – 20%, *honey* (*my honey*) – 10%, *baby* (*my baby, babe* va boshq.) – 7%, *love* (*my love*) – 5%, qolgan 10 %ni EFSMning tarkibiga kiruvchi boshqa birliklar tashkil

etadi.

O‘zbek tilida: *asalim* (*mening asalim, asalligim, asalginam* va boshq.) – 32%, *jonim* (*jon, jonim, jonginam, mening jonim* va boshq.) – 30%, *shakarim* (*shakarginam, mening shakarim* va boshq.) – 10%, *shirinim* (*shirintoy, mening shirinim* va boshq.) – 8%, *novvot* (*novvotim*) – 8%, qolgan 12 %ni EFSMning tarkibiga kiruvchi boshqa birliklar tashkil etadi. Demak, ingliz tilida *dear, darling, sweet, honey, baby, love* kabi, o‘zbek tilida esa *asalim, jonim, shakarim, shirinim, novvotim* kabi leksik birliklar erkalash ma’nosini ifoda etishda eng faol qo‘llaniladi.

Gender mavzusi turli sohalarda o‘rganilar ekan, olimlar, mutaxassislar bu atamaga har xil fikr va izohlar bilan yondashadilar.

Masalan, I.S. Kletsina “gender” atamasini “erkaklarga xos” va “ayollarga xos” tushunchalarga mos keluvchi xulq-atvor modellari va xarakter xususiyatlari to‘g‘risidagi andozalashtirilgan tasavvurlardir, degan fikr bilan izohlaydi [Kletsina, 1998; 19].

M.I. Rasulovanning fikriga ko‘ra, gender butunlay qotib qolgan tushuncha emas, balki u doimo insonlar ta’sirida o‘zgarib turadi va u ijtimoiy hayot bilan bog‘liqdir [Rasulova, 2008; 555].

D.U. Ashurovanning ta’kidlashicha, tilshunoslikda gender yo‘nalish tilni erkak va ayollarga xos bo‘lgan tilning ijtimoiy va madaniy xususiyatlari bilan bog‘lab o‘rganishdir [Ashurova, 2008; 336].

Ayollar ayrim sohalarda til jihatdan erkaklardan ustun bo‘lsalar, erkaklarning esa boshqa yo‘nalishda tillari ravon ekanligini kuzatish mumkin. Ayollar umumiy sharoit va hollarda erkaklardan muloyimroq bo‘lsalar-da, lekin erkak va ayol yakka munosabatlarida erkaklar ayollarga nisbatan muloyimdirlar [Lakoff, 1975].

V.V. Potapov ham bu borada izlanishlar olib borar ekan, inglizzabon mamlakatlarda erkak va ayollar nutqi o‘ziga xos gender xususiyatlarga ega ekanligini ta’kidlab o‘tadi. Erkaklar “muloyimlik”, “yaxshi ko‘rish” konsepti bilan bog‘liq so‘zlarni (*adorable, sweet, charming, precious* kabi), qolaversa, *darling, dear, sweetheart, my love* kabi his-hayajonni ifoda etuvchi so‘zlarni ko‘p qo‘llamaydilar. Erkaklar ayollardan yoqimli murojaatni ko‘proq eshitadilar. Masalan, *honey, dear, darling, baby* kabi so‘zlar shular jumlasidandir [Potapov, 2002].

O‘zbek tilshunosligida ham gender mavzusi o‘zbek milliy folklori yo‘nalishi bo‘yicha olimlarimiz tomonidan keng tadqiq etilganini kuzatishimiz mumkin. Masalan, allalarda qo‘llaniladigan ayrim metaforalar mavzusi bo‘yicha tadqiqot olib borgan folklorshunos olim M.Alaviya allalar aytish ham gender xususiyatlarga ega ekanligini ta’kidlab o‘tadi. Masalan:

Tol ichida tanlab olgan, tol chovkonim bolam, alla.

Gul ichidan iskib olgan, guli rayhonim, bolam, alla.

Bu alla qiz bola uchun aytilgan bo‘lib, matnda jins tushunchasi *guli rayhon, toli chovkon* izofali birikmalari orqali oydinlashgan. Yana bir misol:

Jon bolam, jonim bolam, alla, qo‘li arslon bilakligim, alla,

Botir qoplon yurakligim, alla.

Bu allada esa o‘g‘il bola erkalanayotganligini *arslon bilakligim, qoplon*

yurakligim kabi iboralardan bilish mumkin [Yuldasheva, 2007; 25].

O.Safarovning tadqiqotida ham bu borada mulohazalar keltirilar ekan, uning aytishicha, “beshikdagi bolakaylarning o‘g‘il yoki qiz ekanligiga qarab ham allalarda farq sezilib turadi. Masalan:

*Ignaning uchginasi, pistaning puchginasi,
Buncha shirin bo‘larmu, qizlarning kichkinasi*

kabi allani o‘g‘il bolalarga aytib bo‘lmaydi. Aksincha:

*Sher bo‘ladi o‘g‘limiz, er bo‘ladi o‘g‘limiz.
Ko‘p bo‘ladi o‘g‘limiz, xo‘p bo‘ladi o‘g‘limiz.
Dehqon bo‘lsin o‘g‘limiz, polvon bo‘lsin o‘g‘limiz*

erkalamasini qizlar sha‘niga qo‘llash noo‘rin. Chunki, birinchi misolda xotin-qizlarga munosib kasb-kor fonida qizaloq e‘zozlansa, ikkinchisida erkaklarga xos xususiyatlar poetik ta‘riflana turib, o‘g‘il bola erkalangan. Erkamalar mazmunida bunday differentsiatsiya bo‘rtib tursa-da, ammo shunday differentsiyalashdan xoli, umuman bolani erkalash ruhida aytilgan allalar ham anchadir:

Sadag‘a satig‘ing bo‘lay, oshingga qatig‘ing bo‘lay.

Uyingga mehmon kelganda, kashtali qoshing bo‘lay [Safarov, 1983; 60-61].

Ingliz va o‘zbek tillarida EFSMning gender xususiyatlarini tadqiq etish komponent tahlili asosida so‘zlarning lug‘aviy izohlari tarkibidan ularning gender xususiyatlarini ko‘rsatuvchi markerlar aniqlab olindi.

Markerlar bir guruhga oid so‘zlarning lug‘aviy ma‘no tarkibida mavjud bo‘lib, mazkur so‘zlarni guruhlarga ajratishda yordam beruvchi ko‘rsatkich hisoblanadi. So‘zlarning gender xususiyati ularning lug‘aviy ma‘nolarining izohida *man, woman, girl, boy* kabi marker so‘zlarga asoslangan holda ifoda etiladi [Ashurova, 2008; 336].

Ingliz va o‘zbek tillarida erkalash ma‘nosini ifoda etuvchi leksik birliklarning gender xususiyatlariga ko‘ra, erkak va ayollarga umumiy tarzda qo‘llaniladigan, faqat erkaklarga hamda aynan ayollarga qaratib ifodalanuvchi leksik birliklar guruhiga ajratildi.

Komponent tahlil asosida to‘plangan so‘zlarni ushbu guruhlarga ajratishda ularning lug‘aviy izohlari tarkibida mavjud, so‘zning gender xususiyatini ko‘rsatuvchi markerlar asos qilib olindi. Buni amalga oshirish uchun ingliz va o‘zbek tillaridagi lug‘atlardan foydalanildi.

Birinchi guruh tarkibidagi so‘zlar erkak va ayollarga umumiy jihatdan erkalash ma‘nosida ifoda etilib, ularning lug‘aviy izohlari tarkibida *man and woman, person, smb., boy or girl* kabi markerlar mavjuddir. Masalan, *pet* hamda *baby* so‘zlarining komponent tahlili quyida kuzatildi:

pet (arzanda, erka) – (BrE, informal) used when speaking to **smb.** to show **affection** or to be friendly;

baby (go‘dak, chaqaloq) – 1) a word used to address **smb**, especially your **wife, husband** or lover, in a way that **expresses affection** but that can be offensive if used by a man to a woman he does not know; 2) a little child; 3) **girl** or **woman** 4) **boy, man** (often used in address).

Misoldagi *smb. (kimgadir), wife, husband, girl or woman* markerlari mazkur

soʻzlar nutq qaratilgan shaxsning jinsi inobatga olinmagan holda umumiy ravishda erkalash maʼnosida ishlatilishini koʻrsatdi. Mazkur markerlar eksplitsit ifodalash yoʻli orqali aniqlandi.

Ikkinchi guruhga esa faqatgina erkaklarga qaratilib, erkalash maʼnosida ifoda etiluvchi leksik birliklar kiritildi. Mazkur soʻzlarning lugʻaviy maʼnolari tarkibida *boy, man, male, guy* kabi soʻzning gender xususiyatini koʻrsatuvchi markerlar aniqlandi. Masalan, *fellow* soʻzining gender xususiyatiga koʻra komponent tahlili quyidagichadir: fellow (yigit, doʻst) – 1) as a **male** person, as a “chap”; 2) a **sweetheart**.

Keltirilgan soʻzning lugʻaviy izohi tarkibidagi *male* markeri *fellow* soʻzining erkaklarga qaratib ifodalanishini koʻrsatadi.

Uchinchi guruhga kiritilgan erkalash maʼnosini ifoda etuvchi leksik birliklar ayollarga qaratilib ifoda etiladi. Mazkur soʻzlarning lugʻaviy maʼno tarkibida *girl, female, woman, girl* kabi soʻzlarning gender xususiyatlarini koʻrsatuvchi markerlar mavjud. Masalan:

chicken (joʻja) – 1) a large bird that is often kept for its eggs or meat; 2) a **young woman** (used as an **endearment**);

doll (qoʻgʻirchoq) – 1) prostitute; 2) a doll, a **woman; darling, sweetheart**;

Inamorata (sevgilim) – a **girl or woman** with whom one is in love; **sweetheart**;

lass (qiz) – 1) a young **woman, girl**; 2) **sweetheart**.

Misollar izohidagi *woman* va *girl* markerlari mazkur soʻzlarning erkalash maʼnosida ayollarga nisbatan ifodalanishini koʻrsatdi.

Oʻzbek tilida ham EFSM komponent tahlil yordamida gender xususiyatlarga koʻra guruhlandi. Bunda oʻzbek tilining izohli lugʻatlari asosiy manba boʻlib xizmat qildi. Erkalash maʼnosini ifoda etuvchi leksik birlikning lugʻaviy izohida mavjud markerlarga asoslangan holda ular mazkur tilda ham uch guruhga, yaʼni umumiy, erkaklarga qaratilgan hamda ayollarga ifoda etiladigan leksik birliklar guruhiga boʻlindi. Mazkur birliklarning izohidan *ayol, er, erkak, qiz, oʻgʻil bola, xotin* kabi gender xususiyatlarni koʻrsatuvchi markerlar aniqlandi.

Birinchi guruhga erkak va ayollarga nisbatan umumiy tarzda qoʻllaniluvchi erkalash maʼnosini ifoda etuvchi leksik birliklar kiritildi. Bunda soʻzning lugʻaviy izohida *oʻgʻil* yoki *qiz, mahbub* va *mahbuba, kimgadir, ayol* va *erkak, biror kimga, bolalarga* kabi markerlarga asoslanildi. Masalan:

shirintoy – yosh **bolalarni** suyib, **erkalab** aytiladigan soʻz; yoqimtoy;

chiroq – 1) uy joyni yoritish uchun xizmat qiladigan lampa, uy roʻzgʻor asbobi; 2) oʻzidan kichiklarga, **bolalarga** murojaat va **erkalatish** shakli.

Misollardagi *bolalarni, bolalarga* hamda *oʻgʻil-qiz* markerlari mazkur soʻzlarni birinchi, umumiy guruhga kirishini koʻrsatadi.

Ikkinchi guruhga erkaklarga qaratiladigan erkalash maʼnosini ifoda etuvchi leksik birliklar kiritildi. *Qulun* va *toychoq* soʻzlarining komponent tahlili kuzatiladi:

qulun – 1) bir yoshga toʻlmagan toycha, (-choq); 2) (1-sh., egalik formasida)

oʻgʻil bolalarni erkalatish yoki **erkalatib** murojaat qilish formasi;

toychoq – **bolalarga** nisbatan erkalash maʼnosini bildiradi.

Toychoq soʻzining lugʻatlardan olingan gender xususiyatini koʻrsatuvchi *bola*

markeri ushbu soʻzni umumiy guruhga kirishini koʻrsatsa-da, bu soʻz oʻzbek tilining soʻzlashuv nutqida oʻgʻil bolalarga ifoda etiladi.

Yuqoridagi guruhga kiritilgan leksik birliklar *oʻgʻil bola, er, yigit, oʻgʻil* kabi markerlar asosida toʻplandi.

Uchinchi guruhga esa ayollarga qaratilib aytiladigan erkalash maʼnosini ifoda etuvchi leksik birliklar kiritildi. Oʻzbek tilida faqat ayollargagina qarata erkalash maʼnosida ifoda etiladigan *poshsha, popuk, jonona* kabi erkalash maʼnosini ifodalovchi soʻzlar *maʼshuqa, mahbuba, juvonlar, xotin-qizlar, ayol, ona* kabi gender xususiyatlarni koʻrsatuvchi markerlarga asoslangan holda aniqlandi. Misollar orqali ularning komponent tahlilini keltiriladi:

popuk – 1) **xotin-qizlar** ismi; 2) yosh qizlarga nisbatan **erkalash** maʼnosida qoʻllaniladi;

poshsha – **xotin-qizlarga** murojaatda, hurmat yoki **erkalatishni** ifodalaydi;

jonona – **mahbuba, maʼshuqa, sevgili, yor.**

Shuni taʼkidlash joizki, ingliz va oʻzbek tillaridagi izohli lugʻatlar yordamida toʻplangan erkalash maʼnosini ifoda etuvchi leksik birliklarning gender xususiyatlariga koʻra farqli jihatlari aniqlandi. Mazkur leksik birliklarning umumiy soni ingliz tilida 200 ta, oʻzbek esa tilida 225 tani tashkil etadi. Shulardan oʻzbek tilidagi *jonivor* soʻzi hayvonot dunyosiga qarata erkalashda ifoda etiladi. Erkak va ayollarga nisbatan ifoda etiladigan erkalash maʼnosini ifoda etuvchi leksik birliklar ingliz tilida 94 tani (47%), oʻzbek tili esa 131 tani (58,4%) tashkil etadi. Erkaklarga qaratilgan erkalash maʼnosini ifoda etuvchi leksik birliklar ingliz tilida 37 ta (18,5%), oʻzbek tilida 13 tadir (5,8%). Faqat ayollarga nisbatan qoʻllaniluvchi erkalash maʼnosini ifoda etuvchi leksik birliklar esa ingliz tilida 69 ta (34,5%), oʻzbek tilida 80 tani (35,8%) tashkil etdi.

Demak, ingliz va oʻzbek tilida olib borilgan EFSMning gender xususiyatlarining oʻxshash jihatlari shundaki, mazkur tillarning ikkisida ham ayollarga qarata ifoda etiladigan erkalash maʼnosini ifoda etuvchi leksik birliklar erkaklarga ifoda etiladiganlarga nisbatan son jihatdan koʻpdir. Lekin oʻzbek tilida ingliz tiliga qaraganda erkaklarga nisbatan erkalashni ifoda etiluvchi leksik birliklar son jihatdan kamchilikni tashkil qiladi.

Erkaklar nutqi: “*Dear Catherine*”; “*Oh, darling, darling, darling... You are so lovely...you are lovely... you sweet*”; “*You are lovely wife*”; “*You are a lovely girl*”; “*Well, baby...good old baby*”; “*I love you, baby*”; “*My dear Henry*”; “*Poor dear Cat*”; “*Hello, you sweet*”; “*You dear, brave sweet*” [Hemingway, 1971].

Ayollar nutqi: “*You are sweet*”; “*Oh, darling, ...I’m awfully tired, darling*”; “*You are such a silly boy*”; “*Don’t brag darling. You are so sweet*”; “*You are a sweet Fergy*”; “*How are you, darling?*”; “*You are so sweet*”; “*Darling, darling, is not it lovely?*”; “*Are you awake, sweetheart?*”; “*You say grand so sweetly ...oh, you are sweet*”; “*You are so lovely*”; “*You poor sweet, I love you so...That was lovely, darling, Oh, you are so good to me*”; “*Poor darling*” [Hemingway, 1971].

Misollarda ayollar nutqida *-oh, so, such* kabi erkalashni kuchaytiruvchi vositalar, *darling, sweetheart, sweet* kabi leksemalardan, erkaklar nutqida esa koʻproq *dear,*

baby, love so‘zlaridan foydalanishlari kuzatildi.

Erkaklar nutqi: “*O, speak again, bright angel!*”; “*My dear?*”; “*No nightingale: look, love, what envious streaks*”; “*How is't, my soul? let's talk*”; “*Happily met, my lady and my wife! ... That may be must be, love, on Thursday next*”; “*O child! O child! my soul!*”; “*Sweet flower, with flowers thy bridal bed*”; “*O my love! my wife!*”; “*Ah, dear Juliet*” [Shakespeare, 1913].

Ayollar nutqi: “*What, lamb! what, ladybird!*”; “*It is my lady, O, it is my love!*”; “*Dear love, adieu!*”; “*O honey nurse, what news?*”; “*Sweet, sweet, sweet nurse, tell me, what says my love?*”; “*Tybalt, my cousin! O my brother's child! O prince! O cousin, my dear kinsman!*”; “*Believe me, love, it was the nightingale*”; “*Art thou gone so? love, lord, my husband, friend*”; “*Marry, my child, early next Thursday morn*”; “*O, sweet my mother cast me not away!*”; “*Farewell, dear father!*”; “*Mistress! What, mistress! Juliet! fast, I warrant her, Why, lamb! why, lady! Why, love, I say! madam! sweet-heart!*”; “*O me, O me! My child, my only life.*” [Shakespeare, 1913].

Misollardagi erkaklar va ayollar nutqida erkalash kuchaytiruvchi (*o, ah*) vositalar, metafora (*sweet flower, my soul*), takrorlanish (*O child! O child!*) kabi uslubiy vositalar orqali ifodalanishi kuzatildi. Ammo ayollar erkalovchi jummalarni erkaklarga qaraganda uzunroq tuzishlari, qolaversa, ularning nutqida erkalash hishayajonga to‘la bo‘lishi ma’lum bo‘ldi. Lekin, ingliz she‘riyatida erkalashning gender xususiyatlari so‘zlashuv nutqidan farqli o‘laroq, bo‘yoqdor so‘zlarga va stilistik uslublarga xos ko‘rinishga egadir.

Demak, erkalash ma’nosini ifoda etuvchi so‘zlar, so‘z birikmalari va frazeologik birliklar so‘zlashuvda erkaklar nutqida oddiy ko‘rinishga ega, bo‘yoqdor so‘z va iboralarga unchalik boy bo‘lmasa-da, adabiy tilda esa ular kuchaytiruvchi va uslubiy vositalar orqali ifoda etiladi. Ayollar nutqida ham erkalash so‘zlashuvda erkaklarnikiga nisbatan kuchaytiruvchi vositalar ko‘p ishlatilsa-da, adabiy tilda ularning nutqi metafora, takrorlash, klimaks uslubiy vositalar orqali yanada kuchaytirilib, hishayajon kuchliroq ifoda etiladi. Qolaversa, ingliz ayollarining erkalash bilan bog‘liq jummalarni erkaklarga qaraganda uzunroq tuzishlari ma’lum bo‘ldi.

Erkaklar nutqi: – *Bilim yaxshi narsa, qizim*; – *Ho‘p, bolam*; – *Balli, qizim*; – *Mehmonsan, qizim*; – *Baraka top, bolam*; – *Chiq, qizim, kutib ol*; – *Bog‘ aro bir qizil gul qaro qonimdir mening*; – *Dilbaroy, qizim, bitta choy bilan ikkita nonning iloji bo‘larmikan?*; – *Kel, bolam*; – *Mulloyi baadab bo‘l, o‘g‘lim!*; – *Jonivor, sen o‘zing qopsan-da; U uyma-uy yurib, xotinini chaqirdi: – Zulukxon! Ho, oyposhsha! Qayoqdasiz?*; – *Otaginang o‘rgilsin, poshshaqizim!* – *deb sevindi Cho‘lbobo. – Qadamlaringga hasanot, onaginam*; – *Yuring, jonim, ketdik*; – *Ishqilib, turmushga chiqqan, oyijon*; – *Tashakkur, farishtam!*; – *Go‘zalim O‘ktamxon!*; – *E, oyijonim-ey, men buni qayoqdan bilay!*; – *O‘zi suluvgina, oyijonim, qo‘l oyog‘i chaqqongina!*; – *Yigit bo‘lib hali boshimga bunday savdo tushmagan edi, go‘zalim*; – *Ho‘p, go‘zalim, ho‘p!* *Karim egilib ta‘zim qildi; Karim qizni bag‘riga bosib, yuz-ko‘zlaridan o‘pdi-da: – Rahmat, go‘zalim, – dedi; – Rost, azizim!* – *Saidov qizning elkasiga qo‘l tashlab, uni o‘ziga tortdi. – Sevgim, umidlarim, hayotim birgina sen, azizim!*; – *Nafisa,*

Nafisaoy, nega indamaysiz?; Aziz bolani erdan dast ko'tarib olib, suyub-erkaladi, yuz-ko'zlaridan o'pdi: – Yaxshi yuribdilarmi, polvon?; – Borarsiz, yulduzim [Hamid, 1980].

Ayollar nutqi: – *O'z uyingdek yota ber, qizim; – Voy, cholim qurmag'ur-yey, – Hanifa piqillab kuldi; Zumradbibi: – Voy, onaginang o'rgilsin... Voy bo'ylaringdan onaginang girgitton!; Zumradbibi: – Kim ekan Feruza otliq desam, siz ekansiz, qoqindiq...Nega yanglishadi, o'rgilay?; Xanifa yigitning yelkasini qoqib: – Omonmisan, bolam? Baxtli bo'l, girgitton!; Gulsum: – Voy xolajon-yey!; Rayxon: – Xo'p, aylanay, to'y bo'lsin-chi, albatta aytaman... Opangning oldiga boramiz, qizginam!; Xanifa: – Yo'ldan tolib kelgansiz, aylanay; Rayxon: – Rahmat, o'rgilay... Shunday qizginam. Aqlingga balli!; Feruza: – Sevimli Norqo'zi aka!; Rayxon: – Keling, aylanay, Tursunoy!...Yaxshi o'tiribsanmi, o'g'lim? – dedi u Sheralining yelkasiga qoqib... Sening to'yingda xizmat qilay, o'rgilay; Zumradbibi: – Sherali shu yigit bo'ladimi, aylanay kelinposhsha?; Xanifa: – Omonmisan, qizim?...Ayvonga bor, jonginam; Tursunoy: – Bo'g'ilmang, jonim; Juvon: – Kel, erkatoy, seni yuvintirib qo'yay... Ma, erkatoy, qorning ochgandir...; Nigor opa: – Turdingmi, bolam?; – Voy, bolasi tushmagur-ey!; – Nigor opa ayvon peshiga o'tirib, tizzalariga urib kuldi; Hanifa: – Xo'p, jonim! [Hamid, 1980].*

Yuqoridagi misollar so'zlashuv tiliga xos bo'lib, unda erkaklar so'zlarga *-im* I shaxs birlikdagi egalik hamda *-oy, -xon* kabi erkalash suffikslarini so'zlarga qo'shib erkalashni ifodalashlari kuzatildi. Ayollar esa *o'rgilay, aylanay, onaginang o'rgilsin, voy, bolasi tushmagur-ey, qoqindiq* kabi fe'l asosida yasalgan modal so'zlardan foydalanadilar. Ular nutqda *voy* kabi undov so'zlari, *-ey* kabi fikrni kuchaytiruvchi yuklamalar hamda *-gina, -jon, -xon* (*jonginam, qizginam*) erkalash suffikslarini keng ravishda qo'llashlari kuzatildi. *Girgitton, jonim tasadduq, egachi* kabi leksik va frazeologik birliklar ayollar nutqiga xos ekanligi hamda ayollar erkalashni ifodalashda jumalarni erkaklarga qaraganda uzunroq tuzishlari ham aniqlandi.

Erkaklar nutqi: – *Har bir o'y-xayolim, fikrlarim, tuyg'ularim tutashib ketgan, jonu jahonim bo'lgan onam haqida hech narsa yozmaganman. Qirq yil yashab, hayotda biror so'zini qaytarmaganim, qirq bor xabardor qilgan, qirq bor qayg'urtirganim, qirq bor quvontirganim, bolalarimga bildirmaganimni bildirganim, bermaganimni berganim, yaxshidan yaxshi, yakka-yu yagona insonim bo'lgan onam haqida yozishim uchun, nega o'zimda kuch-qudrat topolmayman? Siz mening boshimdagi tojimsiz, onajon! Siz mening qalbidagi fig'onimsiz, onajon! Sizsiz men onasi oppog'im demaydigan qo'ng'izga aylanaman, onajon!; Mening eng katta boyligim – bu sensan. Hayotimning mazmuni ham, kecha-yu kunduz o'ylaganim ham, tashvishim ham bu – sensan; Ulkan hayot ostonasida turgan mening or-nomusim, qalbimning duru gavhari, qalbidagi hayo pardasini kiygan qizim* [Muhammad, 2007].

Misollar shuni ko'rsatdiki, erkaklar adabiy tilda erkalashni ifoda etishda so'zlashuv tiliga nisbatan mubolag'a, ya'ni giperbola (*qirq bor*), metafora, klimaks kabi uslubiy vositalardan keng ravishda foydalanadilar, jumalarni uzun tuzadilar.

Erkaklarga qaratilgan erkalash: *“My dear Guardian. You are like a father to*

me”; “*Why, my love*”; “*My dear Richard*”; “Jenni Gerxardt” (“Jennie Gerhardt”) romanidan: “*Life is a battle, my dear*”; “*Oh dear, oh dear!...My son, my Lester!*”; “*Lester, dear, I love you, Lester*” [Dreiser, 1972]; “Qirol Lir” (“King Lear”) asaridan: “*Farewell, sweet lord*”; “*My most dear Gloucester!*”; “*O dear father...But love, dear love*”; “*Prove our commodities. O, dear son, Edgar*”; “*Beloved sons, be yours*” [Shakespeare, 1860].

Ayollarga qaratilgan erkalash: “*Ester, my dear*”; “*I am your father now, my child*”; “*Oh, my child, my child, I am your wicked and unhappy mother*”; “*No, no, my love*”; “Jenni Gerxardt” (“Jennie Gerhardt”) romanidan: “*Do I suppose, little girl? He said taking her hand... You are the dearest daydreamer in the world... You are a poetry, my dear...*”; “*Well, he said, dearest, don't feel badly about it*”; “*My dear, you are very pretty girl*”; “*Indeed you are quite sweet*”; “*There is no escape, sweet*”; “*I love you, little girl – I really do*”; “*I want you to have it, sweet*”; “*Come now, sweet*”; “*No, dearest*” [Dreiser, 1972]; “Qirol Lir” (“King Lear”) asaridan: “*And here are to be answer'd. Tell me, my daughters*”; “*Come, my fair Cordelia*”; “*I will not trouble thee, my child, farewell*”; “*But et thou art my flesh, my blood, my daughter*”; “*Sweet-heart, see, they bark at me*”; “*Farewell, dear sister: farewell, farewell, sweet sister*”; “*Our very loving sister, well be-met...For your claim, fair sister*” [Shakespeare, 1860].

Erkalarga qaratilgan erkalash: – *Qalaysiz, begim?*; – *Jonim, qaytib oling uni vazifasiga*; – *Begim, xayollaringiz yo 'ldoshingiz bo 'lib saboq bersinlar sizga*; *Bianka: – Oh aziz Kasio! Mening jonim Kasio! ...jonim Kasio!*; “Muhabbat iztiroblari” dan parchalar: – *O'g'lim, buncha hayallading!*; – *Mayli bolam, xafa bo'lma, hali yoshsan*; – *Omadingni bersin, bolam*; – *Onangni ko'zini to'rt qilding-ku, bolaginam*; – *Voy, o'zim o'rgilay sendan, bolajonim*; – *Borim seniki, o'g'lim. Yolg'izimsan*; – *Sen mening yakka-yu yolg'izimsan, xavotir olaman-da... O'g'lim-yey, voy, bolam-yey, shuncha qimmat narsani men uchun oldingmi?*; – *Qimmatli va sevimli jiyanim Diyorbek*; – *Tentagim*, – *dedi Diana erkalanib* [Karimova, 2004].

Ayollarga qaratilgan erkalash: – *O, mening hur-parivashim, go'zal botirim!*; – *Olqish salom bo'lsin senga, go'zal malikam... Seni bunda ko'tarurlar boshlarga, jonim... Qanday qilib kelib qolding, go'zal Bianka? Bilasanmi parivashim, go'zal sanamim, hozirgina men uyingga bormoqchi edim... Meni kechir, go'zalim... Bilmadim, jonim*; – *Beri kel, jonim... Ammo seni so'ndirsam-chi, ravshan chirog'im*; – *Go'zal Dezdemon, mening mehribon bekam*; – *Eshit, durdonam*; “Muhabbat iztiroblari” dan parchalar: – *Sevgilim, Sen nega ma'yussan?*; – *Suyukli opajonim, Hilola*; – *Qizaloqlarim, sizlar kimning qo'lida qolasizlar* [Karimova, 2004].

Misollarda erkaklar onalar, yorlar va otalar tarafidan ko'proq erkalashni eshitishlarini ko'rish mumkin. Ular ota-onalar tomonidan farzand tariqasida erkalansalar (*my son, my Lester, beloved sons, dear son / o'g'lim-ey, o'zim o'rgilay sendan, bolajonim, voy, bolam-ey, bolaginam*), yorlari tarafidan *love, dear love, sweet lord my love / begim, jonim* kabi yoqimli so'zlarni eshitadilar. Ayollar esa tabiatning maftunkor va nozik jinsi bo'lganliklari sababli ularga ko'proq tashqi ko'rinish, xarakteriga qarab erkalash ma'nosini ifoda etuvchi birliklar (*my dear, you*

are very pretty girl, you are a poetry, my dear art my flesh, my blood, my daughter, my bonnie, my fair / parivashim, go'zal sanamim, durdonam mening mehribon bekam, qizaloqlarim) qo'llaniladi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, mazkur tillarda ayollar nutqidagi erkalash erkaklar nutqiga qaraganda kuchli va his-hayajonga to'laroq ifoda etilishi hamda ayollar erkalashga doir jummalarni uzunroq tuzishlari aniqlandi. Ingliz tilidan farqli o'laroq, o'zbek tilida ayollar fe'l asosida yasalgan modal so'zlardan foydalanishlari ma'lum bo'ldi. Tadqiq etilayotgan tillarning so'zlashuvida erkaklar nutqida erkalash oddiy ko'rinishga ega, adabiy tilda esa aksincha, stilistik bo'yoqdor, kuchaytiruvchi va uslubiy vositalar orqali ifoda etilishi tadqiqot davomida aniqlandi. Ingliz ayollari o'z yorlariga she'riyatda erkalash ma'nosini ifoda etuvchi jummalarni tuzishda ustundirlar. Aksincha, o'zbek ayollari Sharq madaniyatiga xos bo'lgan "ibo", "hayo", "uyat" kabi tushunchalar sababli adabiy tilda erkaklarga qaratilgan erkalashni ehtiyotkorlik bilan tanlaydilar. Qiyoslanayotgan tillarda erkaklarga oilada tutgan o'rnlari, ya'ni farzand, sevgili, oila boshlig'i sifatida erkalash qo'llanilsa, ayollarga esa ko'proq tashqi ko'rinish va xarakterga ko'ra erkalash ifoda etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Auden, W.H., & Pearson, N.H. (1977). *The portable romantic poets*. London: Penguin Books.
2. Avrorin, V.A. (1975). O predmete sotsial'noy lingvistiki. *Voprosy yazykovedeniya*, 4, 11–18.
3. Ashurova, D.U. (2008). Gendernyy faktor v stilistike. "*Zamonaviy tilshunoslik va xorijiy tillar o'qitishning dolzarb masalalari*" nomli ilmiy-amaliy anjuman materiallari (B. 336–337). Toshkent: O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.
4. Dickens, C. (1992). *Bleak house*. London: Heinemann Publishers.
5. Dreiser, T. (1972). *Jennie Gerhardt*. Moscow: Progress Publishers.
6. Hakim, N. (2003). *Erkatoylarim: Hikoyalar*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyushmasi.
7. Hamid, G'. (1980). *Feruz/Binafsha atri*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
8. Hemingway, E. (1971). *A farewell to arms*. Leningrad: Prosveshcheniye.
9. Iriskulov, M.T. (2008). *Tilshunoslikka kirish (2-nashr)*. Toshkent: O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.
10. Judish, K., Ronald, R., & Swan, D.K. (1981). *The book of British humour*. London: Longman Group.
11. Karimova, L. (2004). *Muhabbat iztiroblari*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyushmasi.
12. Kleitsina, I.S. (1998). *Gendernaya sotsializatsiya*. Sankt-Peterburg: Izdatel'stvo Rossiyskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo universiteta imeni Aleksandra Ivanovicha Gertsena.
13. Lakoff, R. (1975). *Language and woman's place*. New York: Harper Colophon Books.
14. Ma'rufov, Z.M. (Red.). (1981). *Tolkovyy slovar' uzbekskogo yazyka* (T. 1). Moskva: Russkiy yazyk.
15. Merriam-Webster. (2003). *Merriam-Webster's collegiate dictionary* (11th ed.). Springfield, Massachusetts: Merriam-Webster, Incorporated.
16. Mirzakalon, I. (1976). *Farg'ona tong otguncha*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.

17. Muhammad, I. (2007). *Chiroylisan tengi yo'q: she'rlar, qissalar, badialar*. Toshkent: "Sharq" nashriyoti.
18. Musayev, Q. (2005). *Tarjima nazariyasi asoslari*. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
19. Partridge, E. (1964). *A dictionary of slang and unconventional English* (Vol. 1). London: Routledge and Kegan Paul.
20. Potapov, V.V. (2002). Sovremennoye sostoyaniye geograficheskikh issledovaniy v russkoyazychnykh stranakh. *Gendere kak intriga poznaniya: Al'manakh. Gendernyye issledovaniya v lingvistike, literaturovedenii i teorii kommunikatsii* (ss. 94–117). Moskva: Rudomino.
21. Qahhor A. (Tarj). (1974). *Bir soatlik xalifa: "Ming bir kecha" kitobidan yangi hikoyat va afsonalar*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
22. Qo'ng'urov, R. (1980). *Subyektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari*. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
23. Rahimov, G'. (2007). *Zamonaviy sotsiolingvistikaning dolzarb masalalari*. Samarqand: Samarqand davlat chet tillar instituti.
24. Rasulova, M.I. (2008). Sostoyaniye i perspektivy natsional'noy lingvistiki. "*Zamonaviy tilshunoslik va xorijiy tillar o'qitishning dolzarb masalalari*" nomli ilmiy-amaliy anjuman materiallari (B. 555-556). Toshkent: O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.
25. Safarov, O. (1983). *Bolalarni erkalovchi o'zbek xalq qo'shiqlari*. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
26. Skul'te, V. (2005). *Angliyskiy yazyk dlya detey*. Bishkek: Turkestan.
27. Sodiqov, A., Abduazizov, A., & Iriskulov, M. (1981). *Tilshunoslikka kirish*. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti.
28. Sodiqova, T. (2007). *Atirgul isi: Saylanma*. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti.
29. Sohob, J. (1965). *Guli siyoh*. Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti.
30. Stroganskaya, I.S. (1967). *V mire prekrasnogo*. Moskva: Vysshaya shkola.
31. Usmonov, S. (1972). *Umumiy tilshunoslik*. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti.
32. Webster, J. (1967). *Daddy-long-legs*. London: J. M. Dent & Sons Ltd.
33. Yuldasheva, M.D. (2007). O'zbek bolalar folklori tilida zoonimlar. *Filol. fan. nomz. diss.* Toshkent.
34. Shakespeare, W. (1860). *King Lear*. New York: W.A. Moore and C.S. Bernard.
35. Shakespeare, W. (1913). *Romeo and Juliet*. Philadelphia: J.B. Lippincott & Co.

REFERENCES

1. Ashurova, D.U. (2008). Gender factor in stylistics. *Proceedings of the Scientific-Practical Conference "Current Issues of Modern Linguistics and Foreign Language Teaching"* (pp. 336-337). Tashkent: Uzbekistan State World Languages University.
2. Auden, W.H., & Pearson, N.H. (1977). *The portable romantic poets*. London: Penguin Books.
3. Avrorin, V.A. (1975). On the subject of social linguistics. *Questions of Linguistics*, 4, 11–18.
4. Dickens, C. (1992). *Bleak house*. London: Heinemann Publishers.
5. Dreiser, T. (1972). *Jennie Gerhardt*. Moscow: Progress Publishers.
6. Hakim, N. (2003). *My darlings: Stories*. Tashkent: Publishing and Printing Creative Association named after Gafur Gulam.
7. Hamid, G. (1980). *Turquoise/The scent of violet*. Gafur Gulam Literature and Art Publishing House. Tashkent: Literature and Art Publishing House named after Gafur Gulam.
8. Hemingway, E. (1971). *A farewell to arms*. Leningrad: Education.
9. Iriskulov, M.T. (2008). *Introduction to linguistics* (2nd ed.). Tashkent: Uzbekistan State World Languages University.
10. Judish, K., Ronald, R., & Swan, D.K. (1981). *The book of British humour*. London: Longman Group.
11. Kahhar, A. (Transl.). (1974). *The caliph for an hour: New stories and legends from "One thousand and one nights"*. Tashkent: Literature and Art Publishing House named after

- Gafur Gulam.
12. Karimova, L. (2004). *Sufferings of love*. Tashkent: Publishing and Printing Creative Association named after Gafur Gulam.
 13. Kletsina, I.S. (1998). *Gender socialization*. Saint Petersburg: Herzen State Pedagogical University Press.
 14. Kungurov, R. (1980). *Semantic and stylistic features of subjective evaluation forms*. Tashkent: Science Publishing House.
 15. Lakoff, R. (1975). *Language and woman's place*. New York: Harper Colophon Books.
 16. Marufov, Z.M. (Ed.). (1981). *Explanatory dictionary of the Uzbek language* (Vol. 1). Moscow: Russian Language.
 17. Merriam-Webster. (2003). *Merriam-Webster's collegiate dictionary* (11th ed.). Springfield, Massachusetts: Merriam-Webster, Incorporated.
 18. Mirzakalon, I. (1976). *Until dawn in Fergana*. Tashkent: Literature and Art Publishing House named after Gafur Gulam.
 19. Muhammad, I. (2007). *You are beautiful without equal: Poems, stories, and literary essays*. Tashkent: Publishing House of 'East'.
 20. Musaev, K. (2005). *Fundamentals of translation theory*. Tashkent: Science.
 21. Partridge, E. (1964). *A dictionary of slang and unconventional English* (Vol. 1). London: Routledge and Kegan Paul.
 22. Potapov, V.V. (2002). Current state of gender research in English-speaking countries. *Gender as Intrigue of Cognition: Almanac. Gender Studies in Linguistics, Literary Criticism and Communication Theory* (pp. 94–117). Moscow: Rudomino.
 23. Rahimov, G. (2007). *Current issues in modern sociolinguistics*. Samarkand: Samarkand State Institute of Foreign Languages.
 24. Rasulova, M.I. (2008). State and prospects of national linguistics. *Proceedings of the Scientific-Practical Conference "Current Issues of Modern Linguistics and Foreign Language Teaching"* (pp. 555-556). Tashkent: Uzbekistan State World Languages University.
 25. Safarov, O. (1983). *Uzbek folk songs of children's endearment*. Tashkent: Publishing House of 'Science'.
 26. Shakespeare, W. (1860). *King Lear*. New York: W.A. Moore and C.S. Bernard.
 27. Shakespeare, W. (1913). *Romeo and Juliet*. Philadelphia: J.B. Lippincott & Co.
 28. Skulte, V. (2005). *English for children*. Bishkek: Turkestan.
 29. Sodikov, A., Abduazizov, A., & Iriskulov, M. (1981). *Introduction to linguistics*. Tashkent: Publishing House of 'Teacher'.
 30. Sodikova, T. (2007). *The scent of rose: Selected works*. Tashkent: Uzbekistan Publishers.
 31. Sohib, J. (1965). *The ink flower*. Tashkent: Fiction Literature Publishing House.
 32. Stroganskaya, I.S. (1967). *In the world of beauty*. Moscow: Higher School.
 33. Usmonov, S. (1972). *General linguistics*. Tashkent: Publishing House of 'Teacher'.
 34. Webster, J. (1967). *Daddy-long-legs*. London: J. M. Dent & Sons Ltd.
 35. Yuldasheva, M.D. (2007). Zoonyms in Uzbek children's folklore. *Diss. cand. philol. scien.* Tashkent.